




TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

RESPUBLIKA OAK JURNALI



2026, 3-SON

ISSN 2181-4201

<https://etjournal.buxdpi.uz>



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 3

BUXORO – 2026

JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA EKSPRESSIV VA BILVOSITA NUTQIY AKTLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Akramova Surayo Renatovna,
BDPI dotsenti, f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jamol Kamol she'riyatida ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlari tahlil qilingan. Nutqiy aktlar nazariyasining zamonaviy pragmalingsvistika va badiiy diskurs tadqiqotlaridagi o'rni yoritilib, she'riy matnda nutqiy aktlarning kommunikativ, emotsional, lingvomadaniy va estetik vazifalari aniqlangan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o'zbek badiiy diskursida, xususan, lirik diskursda nutqiy aktlarning pragmatik tabiati yetarli darajada maxsus o'rganilmagan. Tadqiqotning maqsadi Jamol Kamol she'riyatida ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning namoyon bo'lish xususiyatlari, ularning pragmatik mazmuni hamda badiiy-estetik vazifalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida pragmalingsvistik tahlil, diskursiv tahlil, kontekstual-semantik tahlil, lingvomadaniy interpretatsiya va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Tahlil uchun Jamol Kamolning "Xiyonat" va "Bo'lmagay" she'rlaridan olingan poetik parchalar asos qilib olindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, shoir she'riyatida ekspressiv nutqiy aktlar lirik qahramonning emotsional holati, axloqiy bahosi va ruhiy kechinmalarini ifodalashga xizmat qilishi, bilvosita nutqiy aktlar esa yashirin ma'no, ichki munosabat, milliy-madaniy qarash va poetik tafakkurni ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. Shuningdek, ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlar badiiy diskursda faqat kommunikativ birlik emas, balki lingvomadaniy, lingvoma'naviy va estetik informatsiyani tashuvchi murakkab pragmatik hodisa ekanligi asoslandi. Tadqiqot natijalari o'zbek pragmalingsvistikasi, badiiy diskurs tahlili va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlarida olib boriladigan tadqiqotlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, pragmatika, badiiy diskurs, ekspressiv nutqiy akt, bilvosita nutqiy akt, Jamol Kamol, lingvomadaniyat, lirik diskurs, pragmatik ma'no, poetik nutq.

Kirish. Tilning kommunikativ vazifasi zamonaviy tilshunoslikning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pragmalingsvistikaning rivojlanishi natijasida til birliklari faqat nominativ yoki informativ vosita sifatida emas, balki muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi harakat sifatida talqin qilina boshlandi. Bu jarayonda J. L. Austin va J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etdi. Mazkur nazariyaga ko'ra, har qanday nutqiy birlik muayyan illokutiv kuchga ega bo'lib, u so'zlovchining kommunikativ maqsadi, tinglovchi bilan munosabati va kommunikativ vaziyat bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda nutqiy aktlar nazariyasi pragmalingsvistika, diskurs tahlili, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingsvistika va kognitiv tilshunoslik kabi qator fanlar kesishgan nuqtada rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, badiiy diskursda nutqiy aktlarning funksional imkoniyatlarini o'rganish alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Chunki badiiy matnda nutqiy aktlar oddiy kommunikativ harakat sifatida emas, balki obraz yaratish, xarakter ochish, emotsional ta'sir ko'rsatish, milliy-madaniy qadriyatlarni ifodalash va muallifning estetik pozitsiyasini aks ettirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Lirik diskurs nutqiy aktlarning o'ziga xos namoyon bo'lish shakllaridan biri hisoblanadi. Unda kommunikativ vaziyat real dialogga emas, balki lirik qahramonning ichki nutqi, ruhiy kechinmalari, hissiy munosabati va poetik tafakkuriga asoslanadi. Shu sababli she'riy matnda ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ekspressiv nutqiy aktlar lirik

qahramonning emotsional holati, ruhiy kechinmalari va baholovchi munosabatlarini ifodalasa, bilvosita nutqiy aktlar yashirin ma'no, ishora, kinoya, ramziy ifoda va ichki kommunikativ mazmunni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida pragmalingsvistika va nutqiy aktlar masalalari yuzasidan muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, badiiy diskurs, xususan, she'riy diskursda ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlari yetarli darajada maxsus tadqiq etilmagan. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik vakillaridan biri bo'lgan Jamol Kamol ijodining pragmalingsvistik jihatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida keng o'rganilmagan.

Jamol Kamol she'riyati o'zining chuqur falsafiyligi, milliy ruhga boyligi, emotsional-ekspressivligi hamda poetik tafakkurning serqatlamligi bilan ajralib turadi. Shoir asarlarida nutqiy aktlarning turli ko'rinishlari, jumladan, ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlar keng qo'llanilgan bo'lib, ular orqali lirik qahramonning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari, axloqiy baholari, milliy-madaniy qarashlari va estetik ideallari namoyon bo'ladi. Shu jihatdan Jamol Kamol she'riyati nutqiy aktlarning pragmatik tabiatini tadqiq qilish uchun boy va sarmahsul ilmiy manba hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Jamol Kamol she'riyatida ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning kommunikativ, emotsional, lingvomadaniy va badiiy-estetik vazifalarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun shoirning "Xiyonat" va "Bo'lmagay" she'rlaridagi nutqiy aktlarning illokutiv kuchi, perlokutiv ta'siri, ekspressivlik darajasi hamda yashirin pragmatik ma'nolari tahlil qilinadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda Jamol Kamol she'riyatidagi ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlar pragmalingsvistik va lingvomadaniy yondashuvlar asosida kompleks tarzda tahlil qilinib, ularning badiiy diskursda emotsional, aksiologik, lingvoma'naviy va estetik informatsiyani tashuvchi ko'p qatlamli pragmatik birliklar ekanligi asoslab beriladi. Bundan tashqari, maqolada o'zbek she'riy diskursiga xos bo'lgan bilvositalik, poetik ekspressivlik va milliy-madaniy kodlarning nutqiy aktlar tarkibida namoyon bo'lish mexanizmlari ham yoritiladi.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda Jamol Kamol she'riyatida ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlarini aniqlash maqsadida zamonaviy pragmalingsvistika, diskurs tahlili hamda lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy-nazariy yondashuvlariga tayanildi. Tadqiqotning metodologik asosini J.L. Austinning nutqiy aktlar nazariyasi, J. Searlening illokutiv aktlar tasnifi, pragmatika va badiiy diskurs nazariyasiga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Shuningdek, lingvomadaniy va lingvoma'naviy yondashuvlarning nazariy tamoyillari ham tahlil jarayonida muhim metodologik manba sifatida qo'llanildi.

Tadqiqot materiali sifatida Jamol Kamolning "Xiyonat" va "Bo'lmagay" she'rlaridan olingan poetik parchalar tanlandi. Ushbu she'rlar ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning poetik diskursdagi namoyon bo'lish xususiyatlarini tahlil qilish imkonini beradigan reprezentativ material sifatida tanlab olindi. Tadqiqot obyekti Jamol Kamol she'riyatidagi ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlar tashkil etsa, tadqiqot predmeti sifatida ularning pragmatik mazmuni, kommunikativ vazifalari, lingvomadaniy xususiyatlari va badiiy-estetik funksiyalari belgilandi.

Tadqiqot davomida bir necha ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, *pragmalingsvistik tahlil metodi* yordamida nutqiy aktlarning illokutiv kuchi, kommunikativ maqsadi, ekspressivlik darajasi va perlokutiv ta'siri aniqlashtirildi. Ushbu metod orqali she'riy matndagi nutqiy birliklarning yashirin kommunikativ maqsadlari va pragmatik mazmuni tahlil

qilindi. Bunda nutqiy aktlarning faqat grammatik shakliga emas, balki ularning kontekstual, emotsional va madaniy xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Diskursiv tahlil metodi orqali poetik matn kommunikativ hodisa sifatida o'rganildi. Bu metod yordamida lirik qahramon, poetik adresat, kommunikativ vaziyat va badiiy kontekst o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilindi. Ayniqsa, she'riy diskursda tashqi dialogning mavjud emasligi, kommunikativ vaziyatning ichki monolog shaklida namoyon bo'lishi hamda nutqiy aktlarning emotsional-ekspressiv xarakteri alohida e'tiborga olindi.

Tadqiqotda *kontekstual-semantik tahlil metodi* ham keng qo'llanildi. Mazkur metod yordamida nutqiy birliklarning lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda, ularning poetik kontekstda hosil qiladigan qo'shimcha pragmatik va estetik ma'nolari ham aniqlandi. Chunki she'riy diskursda ko'plab nutqiy aktlar o'zining bevosita semantik ma'nosidan tashqari, ramziy, emotsional va madaniy mazmunni ham ifodalaydi.

Lingvomadaniy tahlil metodi orqali Jamol Kamol she'riyatidagi milliy-madaniy kodlar, qadriyatlar tizimi, diniy-axloqiy tasavvurlar va poetik tafakkurning o'ziga xos jihatlari o'rganildi. Xususan, "qiyomat", "xiyonat", "bulbul", "soya", "kuyuk jon" kabi birliklarning milliy-madaniy va lingvoma'naviy mazmuni pragmatik nuqtayi nazardan talqin qilindi. Bu esa poetik nutqning yashirin ma'nolarini va lirik qahramonning ichki dunyosini chuqurroq ochishga imkon berdi.

Shuningdek, tadqiqotda *tavsifiy va interpretativ metodlar* ham qo'llanildi. Tavsifiy metod yordamida nutqiy aktlarning shakliy va funksional xususiyatlari tizimlashtirildi, interpretativ metod yordamida esa ularning badiiy, emotsional va estetik mazmuni sharhlandi. Mazkur metodlarning kompleks qo'llanilishi Jamol Kamol she'riyatidagi ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning pragmatik tabiatini har tomonlama yoritish imkonini berdi.

Tadqiqotning metodologik yondashuvi nutqiy aktlarni faqat kommunikativ hodisa sifatida emas, balki ko'p qatlamli lingvopragmatik, lingvomadaniy va lingvoma'naviy birlik sifatida talqin qilishga asoslandi. Shu sababli tahlil jarayonida nutqiy aktlarning formal tuzilishi, kommunikativ maqsadi, emotsional-ekspressiv xususiyatlari, milliy-madaniy mazmuni va badiiy-estetik funksiyalari o'zaro uzviy bog'liqlikda o'rganildi. Mazkur metodologik yondashuv Jamol Kamol poetik diskursida ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning namoyon bo'lish mexanizmlarini, ularning pragmatik kuchini hamda o'zbek badiiy tafakkuridagi o'rnini aniqlash uchun zarur ilmiy asos bo'lib xizmat qildi.

Natijalar. Jamol Kamol she'riyatida nutqiy aktlar lirik qahramonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va aksiologik qarashlarini ifodalovchi muhim pragmatik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shoirning poetik diskursida ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlar ko'pincha o'zaro uyg'un holda qo'llanilib, nafaqat kommunikativ maqsadni, balki emotsional, lingvomadaniy va estetik mazmunni ham yuzaga chiqaradi. Tadqiqot jarayonida Jamol Kamolning "Xiyonat" va "Bo'lmagay" she'rlaridagi nutqiy aktlarning pragmatik tabiati tahlil qilinib, ularning badiiy diskursdagi funksional imkoniyatlari aniqlandi.

Jamol Kamolning "Xiyonat" she'ridagi quyidagi poetik parcha ekspressiv nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi:

*Qiyomat yo'q deya, do'stlar urmang dam,
Davron unga sira bermagay omad.
Ne-ne qiyomatlar ko'rmadi olam,
Xiyona degani – o'zi qiyomat.*

Mazkur poetik parchada lirik qahramonning ichki ruhiy holati kuchli ekspressiv vositalar orqali ifodalangan. Birinchi misradagi "do'stlar urmang dam" birikmasi tashqi ko'rinishidan

iltimos yoki murojaat shaklida namoyon bo'lsa-da, pragmatik jihatdan murakkab ekspressiv akt hisoblanadi. Ushbu nutqiy akt orqali lirik qahramon tinglovchiga oddiy murojaat qilmaydi, balki o'zining chuqur ruhiy iztirobi va hayotiy tajribasini ifodalashga harakat qiladi. Bu yerda kommunikativ maqsad axborot yetkazish emas, balki hissiy ta'sir ko'rsatish va ichki kechinmani ifodalashdan iborat.

"Ne-ne qiyomatlar ko'rmadi olam" misrasida esa ekspressiv-baholovchi nutqiy akt yuzaga keladi. Mazkur misrada qo'llangan "qiyomat" leksemasi o'zining lug'aviy ma'nosidan kengroq semantik maydon hosil qilib, diniy-madaniy kod sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek milliy tafakkurida "qiyomat" tushunchasi faqat diniy hodisani emas, balki eng og'ir, eng fojeaviy va eng dahshatli voqelikni ham anglatishi mumkin. Shu sababli lirik qahramon "qiyomat" leksemasi orqali inson boshidan o'tadigan barcha ruhiy va ma'naviy fojealarni umumlashtiradi.

Parchaning kulminatsion nuqtasi bo'lgan "Xiyona degani – o'zi qiyomat" misrasida ekspressiv nutqiy aktning pragmatik kuchi yanada ortadi. Bu yerda lirik qahramon oddiy baho bermaydi, balki xiyonat tushunchasini mutlaq fojea darajasiga ko'taradi. Grammatik jihatdan ushbu birlik assertiv akt shaklida ifodalangan bo'lsa-da, uning pragmatik mohiyati kuchli ekspressiv va aksiologik xarakterga ega. Lirik qahramon xiyonatni inson ruhiy olamini izdan chiqaruvchi, ma'naviy borliqni vayron qiluvchi hodisa sifatida baholaydi. Natijada "xiyonat" va "qiyomat" tushunchalari o'rtasida poetik-pragmatik identifikatsiya yuzaga keladi. Mazkur poetik parchadagi ekspressiv nutqiy aktlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning lingvoma'naviy mazmun kasb etishidir. Shoir tomonidan qo'llangan "qiyomat" tushunchasi orqali o'quvchiga nafaqat lirik qahramonning ruhiy holati, balki uning axloqiy qarashlari, qadriyatlar tizimi va ma'naviy dunyosi haqida ham muhim informatsiya yetkaziladi. Shu jihatdan ekspressiv nutqiy aktlar she'riy diskursda faqat emotsional munosabatni emas, balki aksiologik baholashni ham ifodalovchi pragmatik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Jamol Kamolning "Bo'lmagay" she'rida esa bilvosita nutqiy aktlarning poetik-pragmatik xususiyatlari kuzatiladi:

*To kuyuk jonim xayoling,
Birla mashg'ul bo'lmagay,
Lol qolurman soyadek,
Ko'nglimda bulbul bo'lmagay.*

Mazkur poetik parchada lirik qahramonning ichki kechinmalari bevosita emas, balki bilvosita nutqiy aktlar orqali ifodalangan. She'rning birinchi misrasidagi "kuyuk jon" birikmasi poetik diskursning muhim emotsional-pragmatik markerlaridan biri hisoblanadi. Ushbu birlik orqali lirik qahramonning ruhiy holati, iztirobi va muhabbatga bo'lgan munosabati ifodalanadi. Shu bilan birga, "xayol" obrazi ham bilvosita nutqiy aktning semantik markazi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki lirik qahramon ma'shuqaga bevosita murojaat qilmaydi, biroq uning butun ruhiy olami ma'shuqa xotirasi bilan bog'langanligini yashirin tarzda ifodalaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Jamol Kamol she'riyatida bilvosita nutqiy aktlar milliy poetik tafakkurning muhim xususiyatlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbek badiiy tafakkurida hissiy kechinmalarni bevosita emas, balki ramziy, metaforik va ishoraviy vositalar orqali ifodalash an'anasi mavjud bo'lib, shoirning poetik uslubida ham aynan shu xususiyat kuzatiladi. Shu sababli bilvosita nutqiy aktlar lirik qahramonning ruhiy olamini yanada chuqurroq va ta'sirchanroq ifodalash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari Jamol Kamol poetik diskursida ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning bir necha muhim pragmatik funksiyalarni bajarishini ko'rsatdi. Birinchidan, ular lirik

qahramonning emotsional holati va ruhiy kechinmalarini ifodalaydi. Ikkinchidan, nutqiy aktlar orqali shoirning aksiologik va ma'naviy qarashlari namoyon bo'ladi. Uchinchidan, ular milliy-madaniy va lingvoma'naviy kodlarni faollashtiradi. To'rtinchidan, ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlar poetik diskursning estetik ta'sirchanligini kuchaytiruvchi muhim pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan Jamol Kamol she'riyati o'zbek badiiy diskursida nutqiy aktlarning pragmatik tabiatini o'rganish uchun muhim lingvistik va poetik manba hisoblanadi.

Muhokama. Jamol Kamol she'riyatida ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish natijalari badiiy diskursda nutqiy aktlarning funksional imkoniyatlari an'anaviy kommunikativ doiradan ancha keng ekanligini ko'rsatdi. Nutqiy aktlar nazariyasining klassik talqinida kommunikativ birliklarning asosiy vazifasi so'zlovchining maqsadini amalga oshirish va tinglovchiga ma'lum ta'sir ko'rsatish bilan izohlanadi. Biroq poetik diskursda ushbu jarayon murakkablashib, nutqiy aktlar kommunikativ vazifa bilan bir qatorda emotsional, aksiologik, lingvomadaniy va estetik funksiyalarni ham bajaradi. Shu jihatdan Jamol Kamol she'riyati nutqiy aktlarning ko'p qatlamli pragmatik tabiatini namoyon etuvchi muhim poetik manba sifatida e'tiborni tortadi.

Shuningdek, tahlillar Jamol Kamol she'riyatida nutqiy aktlarning lingvoma'naviy funksiyasi ham alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Shoir tomonidan qo'llanilgan "qiyomat", "xiyonat", "kuyuk jon", "soya", "bulbul" kabi poetik birliklar faqat badiiy obraz vazifasini bajarmaydi. Ular orqali lirik qahramonning ma'naviy olami, axloqiy mezonlari, estetik qarashlari va ruhiy kechinmalari ham ifodalanadi. Shu sababli poetik diskursdagi nutqiy aktlarni faqat pragmalingsvistik nuqtayi nazardan emas, balki lingvomadaniy va lingvoma'naviy yondashuvlar asosida kompleks tarzda o'rganish zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida Jamol Kamol she'riyatida nutqiy aktlarning quyidagi pragmatik xususiyatlari aniqlashtirildi: birinchidan, ekspressiv nutqiy aktlar lirik qahramonning emotsional va aksiologik munosabatlarini ifodalaydi; ikkinchidan, bilvosita nutqiy aktlar poetik matndagi yashirin pragmatik ma'nolarni yuzaga chiqaradi; uchinchidan, nutqiy aktlar milliy-madaniy va lingvoma'naviy kodlarni faollashtiradi; to'rtinchidan, ular badiiy diskursning estetik ta'sirchanligi va poetik semantikasini shakllantirishda faol ishtirok etadi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, Jamol Kamol she'riyati o'zbek badiiy diskursida ekspressiv va bilvosita nutqiy aktlarning pragmatik tabiatini o'rganish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi. Shoirning poetik tafakkuri nutqiy aktlarning kommunikativ, lingvomadaniy, lingvoma'naviy va estetik imkoniyatlarini kompleks tarzda namoyon etadi. Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek pragmalingsvistikasi, badiiy diskurs nazariyasi, lingvomadaniyatshunoslik va poetik tilshunoslik yo'nalishlarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford: Oxford University Press.
2. Searle, J. R. (1979). *Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Mey, J. L. (2001). *Pragmatics: An Introduction*. Second Edition. Oxford: Blackwell Publishers.
5. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingsvistika*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
6. Mahmudov, N. (2012). *Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab....* Toshkent:

Mumtoz soʻz.

7. Nurmonov, A. (2012). *Tanlangan asarlar. II jild. Lingvistik pragmatika va nutq nazariyasi*. Toshkent: Akademnashr.
8. Hakimov, M. (2013). *Oʻzbek pragmalingvistikasi masalalari*. Toshkent: Fan.
9. Yoʻldoshev, B. (2016). *Badiiy matn lingvopoetikasi*. Toshkent: Tafakkur.
10. Rasulov, R. (2010). *Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
11. Jamol Kamol. Qadah. *Lirika*. – T.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1980. – 168 b.

JAMOL KAMOL SHE'RIYATIDA EKSPRESSIV VA BILVOSITA NUTQIY AKTLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI <i>Akramova Surayo Renatovna</i>	198
TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) AS AN EFFECTIVE APPROACH TO DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ESL LEARNERS <i>Abdullayeva Sevinchoy Otanazar qizi</i>	204
ONA TILI VA TABIIY FAN MATNLARINING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI <i>Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi</i>	209
ZAMONAVIY RUS TILI SO'Z YASALISHIDAGI INNOVATSION JARAYONLAR: TENDENSIYALAR VA LINGVISTIKA FANINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Umarova Firuzbonu Jamshidbek qizi</i>	214
DEVELOPING EFL LEARNERS' SPEAKING AND WRITING SKILLS THROUGH BLENDED LEARNING <i>Achilova Risolat A'zamovna, Ugiloy Isakova Rustamjon kizi</i>	221
BADIIY MATNDA NUTQIY AKTLARNING ANTROPOSENTRIK TALQINI <i>Akramova Surayo Renatovna</i>	228
METHODOLOGY FOR DEVELOPING LINGUOCULTURAL COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS THROUGH FAIRY TALES <i>Djabborova Feruza Azamovna</i>	232
Ijtimoiy fanlar	
JINOYATCHILIK KELIB CHIQISHINING IJTIMOY-IQTISODIY SABABLARI, MA'NAVIY-AXLOQIY OMILLARI <i>Xudoyberdiyeva Dilnoza Farxodovna</i>	239
TARBIYA DARSLARIDA HADISLARDAN FOYDALANISH ORQALI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH <i>Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna</i>	245
Aniq va tabiiy fanlar	
BO'LAJAK BIOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA <i>Usmonova Mubashira Suvonovna, Saidova Lobar Jaxonovna</i>	251
BIOLOGIYA DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI ORQALI O'QUVCHILARNING EKOLOGIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI <i>Ibragimova Sitorabonu Akmal qizi</i>	258